XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I
141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 15 - dekabr VI-64-182-7-99-K/22 Nurobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Nurobod tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-4-7-99-K/22-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 7-noyabrdagi 06/04-32-3856-sonli hamda Samarqand viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-noyabrdagi 01/02-38/879-sonli tavsiya xatlari va Nurobod tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 2-dekabrdagi 15-07768-sonli xatini hamda tuman hokimligi moliya bo‘limining 2022-yil 5-dekabrdagi 01-02-38/476-sonli xulosasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24 moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Nurobod tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-4-7-99-K/22-sonli qarorining 1-ilovasidagi 3-8-qatorlari (bandlari) 1-ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (O.Abdusalomov) Nurobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil tasdiqlangan daromadlari rejasiga Samarqand viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev) mazkur qarorni “Nurobod” gazetasiga rasmiy e’lon qilinishini hamda ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi **A.Ziyatov**

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 15 dekabrdagi
VI-64-182-7-99-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Nurobod tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-4-7-99-K/22-sonli qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartishlar

3 band. Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Summada (so‘mda)
Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq	3 653 600 000

8 band. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Summada (so‘mda)
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 529 400 000